JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY MADANIYATNING USTIVORLIGI

Rasulova Shoira Azizovna – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali katta o‘qituvchisi.
e-mail: shoirahonrasulova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy ong shakllari bo‘lmish ma’naviy madaniyat tushunchasi va uni insonlar tomonidan boyitib borilishi haqidagi dunyo olimlarining fikrlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, barqarorlik , madaniy jarayonlar, ma’naviyat, ijtimoiy ong, sinergetik, gnoseologik tahlil.

ПРИОРИТЕТ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье освещены мнения мировых ученых о понятии духовной культуры, которая является источником общественного сознания в устойчивом развитии общества и его обогащении людьми.

Кючевые слова: общество, стабильность, культурные процессы, духовность, общественное сознание, синергетика, гносеологический анализ

THE PRIORITY OF SPIRITUAL CULTURE IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY

Abstract. This article covers the opinions of world scientists about the concept of spiritual culture, which is a source of social consciousness in the sustainable development of society, and its enrichment by people.

Keywords: society, stability, cultural processes, spirituality, social consciousness, synergistic, epistemological analysis.

Kirish. XXI asrga kelib ma’naviyat butun insoniyat uchun dolzarb ma’naviy ozuqaga aylanib ketdiki, natijada usiz har qanday qudratli jamiyat yoki davlat tanazzulga yo‘l tutishi aniq bo‘lib qoldi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, bugungi kunga kelib xalqimiz va yurtimizning istiqbolini belgilashda, “...insoniyat dunyosining buyuk bir yoritgichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etishi zarur”[1].

Shunday ekan, har bir inson hamda kamol topib kelayotgan yosh avlod uchun

ma’naviyat suv bilan havodek naqadar zarurligini unutmasligimiz darkor. Ma’lumki, masala va muammoning mohiyatini anglab yetish chog‘ida uning mazmunini ochib berish maqsadida ishlatiladigan tushuncha va kategoriyalarning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratish juda muhim sanaladi. Shu ma’noda ma’naviyat va madaniyat tushunchalari ham alohida ilmiy tahlillarga muhtoj bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar tomonidan muayyan ko‘lamda talqin etilgan.

Ma’naviyat tushunchasining ma’no-mazmuni haqida fikr yuritganda uning jamiyatda tutgan rolini teran anglamasdan turib ma’naviy madaniyat haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi. Chunki ma’naviy madaniyat ma’naviyatning real hodisa sifatida yuzaga chiqishi, uning voqeiy bo‘lish jarayonining yuzaga kelishidan iborat. Nazariy ongning bir qismi bo‘lgan ma’naviy madaniyatning shakllari amaliyot bilan bog‘liq. Voqelikka nisbatan yoshlar ongida ham ma’naviy madaniyatning elementlari shakllanib, milliylik bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy ong rivojlanadi.

Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida “ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha” [2] sifatida keltirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida esa, “ma’naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi” [3], deyilgan. Har bir ta’rifning funktsionallik va individuallik jihatlari mavjud bo‘lib, inson vujudining ma’nosi, manfaatlar to‘qnashuviga moyilligi, uning benazir va mukammal mavjudotligini ifodalaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov esa “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ushbu tushunchaga bergan o‘zining quyidagicha mashhur ta’rifida: “Ma’naviyat – insonni ruhiy poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir” [4], deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rifning o‘ziga xos tomoni shundaki, unda ma’naviyat insonning diniy va dunyoviy hayot bilan bog‘liq ko‘rinishlarning ifodasi sifatida falsafiy tarzdagi mohiyatini ilmiy muomalaga kiritishga yo‘naltirilgan.

Ma’naviyat bilan madaniyatni tahlil etish chog‘ida ular o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik, sinergetik tamoyillar mavjudligini ko‘ra bilish juda muhim. Ma’lumki, ma’naviyat ham, madaniyat ham hech kimda tug‘ma bo‘lmaydi, instinktlar orqali tabiatan berilmaydi. U shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi negizida ahloq, did, idrok, his-tuyg‘ularning ta’siri ostida shakllanadi va, shunday deyish joiz bo‘lsa, ongsizlikdan onglilik, anglanganlik tomon ulg‘ayishida vujudga keladi. Har bir voyaga yetib kelayotgan yigit-qiz shaxsiy hayotiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak-atrofdagi kishilarning, jamiyatning va o‘tgan ajdodlarning to‘plagan tajribalarini o‘zlashtiradi. Yoshlar ham ijtimoiy amaliyot mahsuli bo‘lgan madaniyatni o‘zlashtirish bilan birga, unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yoshlar ijtimoiy ongining shakllanishi jarayonida moddiy va ma’naviy madaniyatni boyita boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini ilmiy bilishning ob’ektivlik (xolislik), tarixiylik, sistemalilik, retrospektiv va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Fanda madaniyatga berilgan ta’riflar ham juda ko‘p. Masalan, akademik E. Yusupovning fikricha, “madaniyat – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohasida yaratgan, o‘zlarining

ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan boyliklar tizimidir” [5]. Ko‘rinib turibdiki, akademik olimimiz bergan bu ta’rifda madaniyat asosan insonning yashash tarzi bilan bog‘liq madaniy faoliyatni o‘z ichiga olganligiga asosiy urg‘u berilgan.

Falsafa bo‘yicha qomusiy lug‘atda “madaniyat (so‘zning o‘zagi arabcha madina, ya’ni shahar ma’nosidan kelib chiqqan holda – madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik) – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli” [6], - deb talqin etilgan. Bunda madaniyatning insonning tabiat bilan munosabatlarining uyg‘unlashuviga e’tibor qaratilgan.

Madaniyatga ta’rif bergan olimlar orasida turli soha xodimlari, jumladan, siyosatdonlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, G.V. Plexanov tomonidan, “madaniyat inson va jamiyat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar (qadriyatlar) yig‘indisi ekanligi ta’kidlanadi” [7]. Ko‘rinib turibdiki, uning ta’rifida madaniyat bevosita inson faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida olib qaralgan va o‘z-o‘zidan ravshanki, unda marksizm falsafasining tarixni materialistik tushunish nazariyasining ta’siri ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi.

Madaniyat, mohiyatan, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib, birinchi marta adabiyotda “madaniyat” so‘zi nazariy atama sifatida “Toskulian suhbatlari”da (mil. av. 45 y) qadimgi Rimning mashhur notig‘i va faylasufi, tarixchi Mark Tuliy Sitseron tomonidan qo‘llanilganligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Bu o‘rinda shuni ham ta’kidlash lozimki, o‘sha paytda bu atama adabiyotda qishloq xo‘jaligi atamasi (qayta ishlash) vazifasini bajargan. Chunki dastlab madaniyatni majoziy ma’noda tabiat va jamiyat hodisalarining inson ongiga ta’siriga nisbatan, keyin esa inson ongi mahsuli va asosida yaratilgan falsafiy an’analarning davomi sifatida ishlatishgan. Shuning uchun Suqrot ham madaniyatni falsafiy tarzda ifodalab, falsafaning inson hayotiga ta’siri usullari tizimida «madaniyat aql – falsafa” degan tezisni maydonga olib chiqqan edi. Bu esa madaniyatning falsafiy bilim ekanligiga qaratilgan ilmiy qarash ekanligini ta’kidlash borasidagi birinchi urinishlar edi. Shu vaqtdan boshlab ushbu so‘zning ma’naviy jihati tarixiylik mazmuniga ega bo‘lib, ijtimoiy jarayonga xos ma’no kasb eta boshladi.

XVII asrda kelib madaniyat inson tomonidan amalga oshiriladigan munosabatlarning ijobiy va salbiy natijasi, shaxsning tashqi va ichki mohiyatini ifodalovchi tushuncha sifatida keng qo‘llanila boshlandi. Bu ham, tabiiyki o‘z davriga xos ilm-fan va ijtimoiy ishlab chiqarish yutuqlarining ifodasi tarzida aks etgan mazmun va mohiyatdan iborat bo‘lganligi bilan e’tiborga loyiq.

XIX asrda esa ko‘plab madaniyatshunoslar yetishib chiqa boshlaganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ayniqsa, Yevropada ilmiy-falsafiy tafakkur rivoj topganligi fan tarixida alohida sahifa ochdi va bu holat madaniyat kategoriyasini tushunishga nisbatan yondashuvlarda ham o‘z aksini topmasdan qolmadi, deyishimiz mumkin. Rus olimasi E. A. Orlova aytganidek, “shu davrdan boshlab “madaniyat” tushunchasi “sivilizatsiya”, “ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya”, global mintaqalashtirish” kategoriyalari bilan kesishadigan bo‘ldi” [8].

XX asrda Yevropa madaniyatshunosligida T. Parsons madaniyatni ijtimoiy harakatni tahlil qilish sifatida, K. Levi-Strauss esa o‘z asarlarida tabiiy jarayonlarga qarshi bo‘lgan hodisalarning tanlangan maydoni, deb qaraydi. XX asrning ikkichi yarmidan boshlab bu tushunchaga ko‘plab rus faylasuflari, jumladan, N. Berdyayev,

V. Ivanov, L. Shestov, V. Rozanovlar yuqori madaniyatni anglash sohasidagi ko‘plab qimmatli g‘oya va ilmiy tasavvurlarni olib kirishdi.

Madaniyatning mohiyatini tushunishda rus faylasuflaridan biri V. S. Biblerning fikri, o‘ylaymizki, o‘ziga xosligi bilan e’tiborga molik. Uning fikricha:

madaniyat insonga xos bo‘lib, bir vaqtda borliqda mavjud bo‘lishligi va odamlar uchun hamkorlik aloqasi shaklida namoyon bo‘ladi;

madaniyat – inson o‘z mohiyati va shaxsiyatini aqliy anglab yetishi, ijtimoiy hayotda o‘rnatilgan qoidalarga so‘zsiz amal qilish holatidir. Madaniyat - bu o‘z taqdiriga nisbatan erkin qaror qabul qilish va qayta belgilash, uning tarixiy va umumbashariy javobgarligini anglash shaklidir;

madaniyat dunyoning birinchi ixtirosi.

Bunda V. S. Bibler madaniyatning bu uchta ko‘rinishiga xos turli belgilarni o‘z ichiga olgan noyob va universalligini emas, balki, madaniyatning alohida bo‘limlarga ajratilishidir, deb ta’kidlaydi.

Bizning atrofimizdagi dunyoda mavjud bo‘lgan ma’naviy madaniyatni ongli ravishda anglab yetish voqelik ikkilamchi tabiatga o‘tishini shaxs madaniyati sifatida qabul qilishi natijasida obyektivlikdan subyektivlikka erishiladi. Mazkur madaniyat inson uchun ijtimoiy va tarixiy tajriba, dasturlarni to‘plash asosida ijtimoiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat va harakatni oldinga yo‘naltiradi. Borliqni inson ongida aks etishi, shu asosda o‘z ijod mahsulini yaratishi natijasida ma’naviy madaniyat paydo bo‘ladi.

Ma’naviy madaniyat, aslida, kishilik jamiyati tarixida asrlar davomida shakllangan inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, unda insonning voqelikka stixiyali tarzda yondashuvi asosida ma’naviy dunyoqarash vujudga kelgan. Asta-sekinlik bilan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga aqliy munosabatning rivojlanishi negizida ma’naviy madaniyat unsurlari ijobiy va foydali ahamiyat kasb etgan va shuning uchun avloddan-avlodga meros sifatida qoldirish uchun zarur deb topilgan. Bu esa, o‘z navbatida insonning aql-zakovatida yangicha tafakkur tarzi shakllanishi bilan birga, borliqning narsa va predmetlari, hayvonot olami, koinot, megaolam va umuman dunyo to‘g‘risidagi qarashlarining kengayishiga olib kelgan.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida siyosiy va huquqiy mafkura, falsafa, axloq, san’at sohasidagi erishilgan yutuqlar saralanib boradi. Ular ma’naviy boyliklarni yaratuvchi shaxslar tomonidan qayta ishlanib, sayqallanadi va odamlarning ehtiyojlarini qondirish tomonga yo‘naltiriladi. Shu boisdan “ma’naviy madaniyat – insonning ma’naviy xususiyat va xislatlari, jamiyatning madaniy darajasini aks ettiruvchi tushuncha” [9] sifatida olib qaraladi. Unda insonning oddiy yashashi bilan bog‘liq kundalik turmushning muhim ehtiyojlari tizimi jamiyat bilan bog‘liq holda ifodalangan.

S. Otamurodov fikriga ko‘ra esa, “ma’naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasidir” [10]. Bunda voqelikda inson mehnati natijasida yaratiladigan moddiy va ma’naviy boyliklar, shaxs ma’naviy qiyofasining yuksalishiga xizmat qiladigan ahloq qoidalariga rioya etish masalalari aks etgan.

Biroq, ushbu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bizningcha, S. Otamurodovning bu fikri muhokama etilayotgan masala yuzasidan mutlaq haqiqat darajasi uchun da’vogarlik qila olmaydi. Chunki ma’naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish

tushunchasidan ancha kengroq tushuncha. Binobarin, olimning badiiy aks ettirish jihatini mutlaqlashtiradigan bo‘lsak, siyosiy, ilmiy, huquqiy aks ettirish kabi jihatlari ushbu yondashuv doirasiga sig‘may qolishi tabiiydir. Shunday ekan, ma’naviy madaniyatni voqelikni badiiy aks ettirishga tenglashtirish asossiz, balki voqelikni badiiy aks ettirishni ma’naviy madaniyatni shakllantirish vositalaridan biri deyish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Ilohiyot nazariyasi nuqtai nazaridan yondashuvda insonning ma’naviy borlig‘i uchun najot bilan muloqot orqali sodir bo‘ladigan ilohiy inoyat, insonning ichki o‘zgarishi va iymon orqali uning qadriyatlari va ma’naviy (ilohiy) ga bo‘lgan munosabatining o‘zgarishlari tushuniladi. Taniqli rus faylasufi I. Ilin bu to‘g‘rida shunday deb yozadi: “barcha ma’naviy madaniyatning asosiy manbai - bu bizga berilgan Ilohiylik. Xudo tomonidan beriladigan yaxshi va jonli narsalarda sevgi va iymon mavjud va uni e’zozlaymiz” [11]. Bu fikrlardan har bir dinda xudoga sig‘inish ilohiylik kasb etishini ko‘rishimiz mumkin va o‘zimizning unga e’tiqodimiz orqali o‘zligimiz, ichki hissiyotlarimizni bag‘ishlaymiz.

Xulosa. Ma’naviy madaniyatga ta’sir qiluvchi omillardan biri jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida odamlar ma’naviyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan turli aloqalar, yangi avlodlarning o‘z rivojlanishida yangi qadriyatlar to‘plashi, bilim, g‘oyalar, tajriba orttirishi bilan bog‘liqligidir. Shu bilan birga kundalik an’analar bilan bog‘liq diniy hamda dunyoviy tafakkur ham ana shu omillardan biri sanaladi. Diniy tafakkurda inson ma’naviy ongiga ta’sir qiladigan ilohiy hodisalar va jarayonlar asosiy o‘rin egallaydi. Bunda ma’naviy madaniyatning rivojlanish jarayoni jamiyatning taraqqiyot yo‘nalishini belgilaydigan ko‘rsatkich vazifasini bajaradi.

Ma’naviyat subyektning barqaror holati darajasida to‘liq namoyon bo‘lib, ma’naviy madaniyatning yuqori darajasiga aylanadi. Ushbu jarayonning mohiyatini sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy juda chiroyli va mantiqiy ta’riflaganligini keltirish juda o‘rinli bo‘ladi: “Bu esa tabiiy hayot ruhining yo‘g‘on tomirlar vositasi bilan qalbdan a’zolarga yuborilishi bilan bajo keladi” [12], deb yozgan edi alloma.

Jamiyatda ma’naviy madaniyatni rivojlantirish uchun milliylikni saqlash bilan birga, undan yiroqlashish, insoniyat tarixiga chuqur kirib borish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu tarzda yoshlar kamolotiga xizmat qiladigan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirish, jamiyatda ajdodlar yaratib qoldirgan moddiy va ma’naviy merosning naqadar buyuk xazina ekanligini anglab yetish mumkin bo‘ladi. Har bir yosh avlod ongli ravishda o‘zining ma’naviy-mafkuraviy olamini milliy va umuminsoniylik uyg‘unligida kamol toptirishi ertangi kun uchun bevosita ma’naviy boylikka aylanadi. Ijtimoiy hayotda moddiylik va ma’naviylikning uyg‘unligi va o‘zaro ta’siri natijasida aqlan yetuk, ahloqan barkamol, jismonan sog‘lom, e’tiqodi butun inson tarbiya topadi. Inson o‘zining teran fikri, rang-barang qarashlari, boy tushuncha va tasavvurlari va g‘oyalar dunyosi yordamida turlicha madaniyatlarni biri-biridan farqlab boradi.

Takliflar. Har bir xalq uchun ma’naviy madaniyatning o‘ziga xos boshqa xalqlardan farqlanadigan jihatlari mavjud bo‘lib, undan foydalanishda ijobiy tomonlarni olishi . Xalqimizning buyuk allomalari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino,

Navoiy, Bobur va boshqalarning asarlarida turli xalqlar madaniyatlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga o‘zaro ta’siri keng yoritilgan ulardan unumli foydalanish. Mutafakkirlarning asarlari bugungi kunda ko‘plab tillarda tarjima qilinib, boshqa xalqlarning manfaatlari bilan mos bo‘lganligi bois ularning ma’naviy boyliklari qatoridan ham mustahkam joy olish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 260.
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2013. – B. 172.
3. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2003. – B. 334.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 19.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari . – Toshkent: Universitet. 1998. – B. 60.
6. Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2004. – B. 230.
7.Erkayev A . “Ma’naviyatshunoslik”. – Toshkent: “Ma’naviyat “, 2018. – B. 84.
8. Орлова Э.А. Введение в социальную и культурную антропологию. – Москва, 1994. – С.18.
9. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot. 2013. – B. 158.
10. Otamurodov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – Toshkent: O’zbekiston, 2015. – B. 23.
11. Ильин И. Путь духовного обнавления. Собр. Соч. В 10 т. – Москва: 1993. – С.70.
12. A. N .Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 219.